



## EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA INVESTITSIYALARNING O'RNINI

Ziyayev Jamshid.

*Toshkent moliya instituti talabasi*

Iqtisodiyotda investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish ko'plab sohalar, tarmoqlar va hududlarga yangi texnologiyalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib kelishiga xizmat qilishi ma'lum. Chunki investitsiya har qanday mamlakatning iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, uning taraqqiyotini ta'minlovchi, rivojlantiruvchi muhim kapitaldir.

Mamlakatimizda 2017 yildan boshlab to hozirgacha barcha manbalar hisobidan 716 trillion so'm yoki oldingi davrga nisbatan 2 baravardan ziyod investitsiyalar o'zlashtirilgani yangi O'zbekistonda iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish, dolzarb loyihalarni mablag' bilan ta'minlash maqsadida faol investitsiyaviy siyosat olib borilayotganidan dalolat beradi.

O'zlashtirilgan investitsiyalarning deyarli 65 foizi sanoat va infratuzilma loyihalariga to'g'ri kelgani tufayli so'nggi 4 yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi 25 foizdan 33 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi esa 1,3 baravarga o'sgan. Eng muhimi, bu davrda 441 trillion so'mlik 47 mingdan ziyod yirik, o'rta va kichik loyihalar ishga tushirilishi hisobiga 680 mingdan ortiq doimiy yangi ish o'rinlari yaratilgan.<sup>16</sup>

Mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyoti bevosita investitsiyalar oqimiga bog'liqligini inobatga olsak, xorij investitsiyalarini keng miqyosda jalb qilish — iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Demak, olib kelingan har bir dollar xalqimizga, hududlar va tarmoqlarga o'zining ijobiy natijasini berishi lozim.

Tahlillarga e'tibor bersak, ajratilgan har bir milliard so'm evaziga Namanganda 12 ta, Andijonda 11 ta, Navoiy va Sirdaryoda 8-9 tadan yangi ish o'rnini yaratilgan. Bu ko'rsatkich Buxoro, Samarqand va Xorazmda 6-7 ta, Qashqadaryo va Farg'onada 5 taga to'g'ri kelgan. Qoraqalpog'iston, Jizzax, Surxondaryo, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida esa atigi 3-4 tani tashkil etgan.

Birgina Toshkent viloyatiga oxirgi 4 yilda yo'naltirilgan 950 million dollar xorijiy investitsiya va bank kreditlari hisobiga atigi 40 mingta yangi ish o'rnini yaratilgan. Ya'ni bir ish o'rnini 24 ming dollarga to'g'ri kelmoqda. Vaholanki, Namangan viloyatida 2 baravar kam mablag' sarflanib, 52 mingta ish o'rnini ochilgan.

Hozirgi kunda barcha hududlarda mebellarga talab, ularni tayyorlashga sharoit bor. Davlatimiz rahbarining joriy yil 21 iyundagi tegishli qarori bu soha uchun imkoniyatlarni kengaytirdi. Xususan, bir qator tuman va shaharlarda mebelsozlikka ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini tashkil etilib, 200 million dollarlik 450 ta loyiha joylashtirilishi va kamida 7,5 mingta yangi ish o'rnini yaratilishi orqali ming-minglab fuqarolarimiz doimiy ish joyiga ega bo'ladi, shuncha odamlarning qora qozoni qaynaydi, hayotdan rozi yashaydi.

<sup>16</sup> <https://uzlidep.uz>

Joriy yilning 6 oyi yakunlariga ko'ra mamlakatimiz korxonalari tomonidan 6,1 milliard dollarlik mahsulot eksport qilingani ta'kidlandi. Ayni paytda eksport faoliyatiga 950 ta yangi korxonalar jalb etildi, xorijga yangi 85 ta nomdagi mahsulot yetkazib berish o'zlashtirildi, shuningdek, qo'shimcha 4 ta davlat bozoriga chiqildi.

Keyingi yillarda Yaponiya, Koreya Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari bilan o'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari muttasil oshib bormoqda, oliy darajadagi uchrashuvlar yakunlari bo'yicha qabul qilingan "yo'l xarita"lari doirasida turli tarmoqlarda yangi kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda yaponiyalik sheriklar bilan hamkorlikda geologiya, kimyo va neft-kimyo, bank-moliya, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi sohalarda umumiy qiymati 5,6 milliard dollarlik 48 ta loyiha amalga oshirilmoqda.<sup>17</sup>

Xususan, "HIS" kompaniyasi bilan mehmonxona majmualarini qurish, "Isuzu" va «Itochu» kompaniyalari bilan «SamAvto» qo'shma korxonasi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) bilan Navoiy issiqlik elektr stansiyasida energetik bloklar barpo etish bo'yicha va ko'plab boshqa loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Koreya Respublikasi bilan ikki tomonlama hamkorlik ham keyingi yillarda ijobiy sur'at bilan rivojlanmoqda. Joriy yilning boshidan buyon tovar ayirboshlash qariyb 1 milliard dollarga yetdi, Janubiy Koreya kapitali ishtirokida 60 ta yangi korxonalar tashkil etildi, ularning umumiy soni esa 855 taga yetdi.

Joriy yilda Toshkent shahrida ko'p tarmoqli bolalar tibbiyot markazi hamda Farg'ona shahrida O'zbekiston-Koreya xalqaro universitetini tashkil etish bo'yicha loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilgani, ular doirasida 1 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilgani ta'kidlandi.

Joriy yilda charm-poyabzal sanoatida 202 million dollarlik 112, elektr texnikasi tarmog'ida 140 million dollarlik 45, farmatsevtika yo'nalishida 146 million dollarlik 36 ta loyihani o'z vaqtida ishga tushirilishi natijasida hududlarda ishlab chiqarish ko'lami kengayadi, eksport hajmi oshadi.

Albatta, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi, barqaror iqtisodiy o'sishga erishishi, aholi daromadlarining oshishi, turmush sharoitining yaxshilanishi aksariyat holatlarda milliy iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga jalb etilayotgan investitsiya mablag'larining hajmi va tarkibiga bog'liq. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish esa barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga, pirovardida mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida atganda, bugun hududlarga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Puxta o'ylangan, chuqur tahlil asosida yo'naltirilgan investitsiya mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun lokomotiv vazifasini o'taydi. Bu jarayonda investitsiyalarni nafaqat iqtisodiyot tarmoqlariga, balki ilmiy ishlanmalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish g'oyat muhimdir.

<sup>17</sup> <https://president.uz>